Vositachilik shartnomasi

OPERATOR: «BASHIRSOFT» OILAVIY KORXONA · INPAY.UZ

Kuchga kirgan / so‘nggi tahrir sanasi: 30.06.2026

Ushbu shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360 va 367-moddalari hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida tuzilgan ommaviy ofertadir. Vositachi — «BASHIRSOFT» Oilaviy Korxona (STIR/INN: 313418111). Har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs (keyingi o‘rinlarda — “Mijoz”) platformada ro‘yxatdan o‘tish, to‘lovni amalga oshirish yoki “Roziman” tugmasini bosish orqali ushbu ofertani to‘liq va shartsiz qabul qilgan (aksept) hisoblanadi. Aksept amalga oshirilgan paytdan boshlab elektron shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi va yuridik kuchga ega bo‘ladi.

1 Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu hujjat — Vositachi tomonidan ommaga taqdim etilgan ommaviy oferta bo‘lib, inPAY.uz platformasi orqali to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha vositachilik munosabatlarini tartibga soladi.

1.2. Hujjat turi — ommaviy oferta; huquqiy maqomi — elektron shartnoma; platforma — inpay.uz.

1.3. Mijoz platformadan foydalanish orqali ushbu shartnoma shartlariga to‘liq rozilik bildirgan hisoblanadi.

2 Atamalar

Oferta — Vositachi tomonidan ommaga taqdim etilgan shartnoma taklifi.

Platforma — inpay.uz veb-sayti, Telegram botlari, API va boshqa raqamli interfeyslar.

Aksept — ushbu ofertani qabul qilish harakati.

Xizmat — to‘lovlarni qabul qilish, API integratsiyasi, texnik yordam va vositachilik xizmatlari.

To‘lov tizimi — Markaziy bank litsenziyasiga ega elektron to‘lov tizimlari (Payme, Click, Upay, Uzum Bank va boshqalar).

To‘lov havolasi — to‘lovni amalga oshirish uchun yaratilgan maxsus elektron sahifa.

Tranzaksiya — Platforma orqali amalga oshirilgan moliyaviy operatsiya.

3 Shartnoma predmeti

3.1. Vositachi Mijoz topshirig‘iga muvofiq, haq evaziga, o‘z nomidan va Mijoz hisobidan quyidagi xizmatlarni amalga oshiradi:
to‘lov tizimlari bilan shartnomalar tuzish;

Platforma orqali to‘lovlarni qabul qilishni tashkil etish;

API integratsiyasi va texnik sozlash;

tranzaksiyalarni qayd etish va hisob-kitob yuritish.

3.2. Qo‘shimcha pullik xizmatlar Mijozning ixtiyoriga ko‘ra faollashtiriladi.

3.3. Aniq tijorat shartlari alohida kelishuv yoki tarif jadvali asosida belgilanadi.

4 Tomonlarning majburiyatlari va huquqlari

4.1. Vositachining majburiyatlari litsenziyalangan to‘lov tizimlari bilan ishlash;
tranzaksiyalarni hisobga olish va xavfsizligini ta’minlash;

tijorat sirini saqlash;

qonunchilikka rioya qilish.

4.2. Vositachining huquqlari har bir to‘lovdan komissiyani avtomatik ushlab qolish;
shubhali tranzaksiyalarni to‘xtatish;

qonunbuzarlik aniqlansa xizmatni cheklash yoki bloklash;

ofertani bir tomonlama o‘zgartirish (yangi tahrir e’lon qilingandan 15 kun o‘tib kuchga kiradi).

4.3. Mijozning majburiyatlari qonuniy faoliyat yuritish;
noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirmaslik;

komissiya va boshqa to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash;

xavfsiz ulanishdan foydalanish.

5 Hisob-kitoblar va komissiya

TO‘LOV TURI	MIQDORI	IZOH
Tizim komissiyasi	Tizim komissiyasi asosida	Har bir muvaffaqiyatli tranzaksiya uchun
Integratsiya to‘lovi	0 so‘m	Dastlabki ulanishda
Qo‘shimcha xizmatlar	Kelishuv asosida	Talab va takliflar asosida belgilanadi
Kechiktirilgan to‘lov	0.03% / kuniga	Har bir kechiktirilgan kun uchun

jarimasi

5.5. Hisob-kitob tartibi komissiya avtomatik ushlab qolinadi;
qolgan mablag‘ 1 ish kuni (24 soat) ichida Mijoz hisobiga o‘tkaziladi;

yechib olish uchun ariza berilmagan holatda Vositachi javobgar emas.

6 Shartnomani bekor qilish

Mijoz akkauntni o‘chirish orqali shartnomani bekor qilishi mumkin;

Vositachi qonunbuzarlik aniqlansa bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega;

bekor qilingandan so‘ng hisob-kitoblar yakunlanadi.

7 Fors-major

Tabiiy ofatlar, urush, epidemiya, davlat cheklovlari kabi yengib bo‘lmas kuch holatlarida tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

8 Nizolarni hal qilish

avvalo muzokara yo‘li bilan;

kelishuvga erishilmasa — O‘zbekiston Respublikasi sudlarida.

9 Maxfiylik

email, ism, telefon, Telegram ID xizmat ko‘rsatish maqsadida olinadi;

ma’lumotlar uchinchi shaxslarga berilmaydi (qonun talab qilgan holatlar bundan mustasno);

o‘chirish uchun @inspire_wallet yoki @merchants_uz orqali murojaat qilinadi;

o‘chirish muddati — 3 ish kuni;

o‘chirilgan ma’lumotlar tiklanmaydi.

10 Bog‘lanish ma’lumotlari

XIZMAT KO‘RSATUVCHI	«BASHIRSOFT» Oilaviy Korxona
STIR (INN)	313418111
BANK	TBC Bank
HISOB RAQAMI	2020 8000 8075 5667 9003
ELEKTRON POCHTA	support@inpay.uz
TELEFON	+998 33 571-77-17

Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Billur MFY, MANZIL 4-mavze, 3-uy, 71-xonadon

PLATFORMA	inpay.uz
TELEGRAM BOT	@inPAYuzbot

© 2026 «BASHIRSOFT» Oilaviy Korxona · inPAY.uz — barcha huquqlar himoyalangan. STIR: 313418111 · Savdo Direktori: Ochilboyev Nurillo Nodirjon o‘g‘li